

25-Sentabr, 2025-yil

NAMANGAN KULOLCHILIK MARKAZINING XIX–XX ASRLARDAGI RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA BADIY XUSUSIYATLARI

Mo‘ydinova Dilnozaxon Madaminovna

NamDU doktoranti.

dilnozamaribxonova1997@gmail.com (91)1572787

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan kulolchilik markazining XIX asr oxiri va XX asr davomida shakllangan badiiy va texnologik an‘analari tahlil qilinadi. Namangan ustalari faoliyati, ularning asarlari bezaklari, sir texnologiyalari hamda boshqa Farg‘ona vodiysi markazlari — Rishton va G‘urumsaroy bilan solishtirma jihatlari yoritiladi. Shuningdek, XX asr oxirida yuz bergan o‘zgarishlar va markaz faoliyatining to‘xtashi ham ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Namangan kulollari, kulolchilik maktabi, badiiy uslub, texnologiya, an‘anaviy hunarmandchilik, Rishton, G‘urumsaroy.

Annotation: The article analyzes the artistic and technological traditions of the Namangan pottery center in the late 19th and 20th centuries. It examines the activities of Namangan masters, decorative features of their works, glazing techniques, and comparisons with other centers of the Fergana Valley, such as Rishtan and Ghurumsaroy. The transformations of the late 20th century and the decline of the Namangan pottery school are also discussed.

Keywords: Namangan potters, pottery school, artistic style, technology, traditional handicraft, Rishtan, Ghurumsaroy.

KIRISH

O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysi qadimdan kulolchilik san‘ati bilan mashhur bo‘lib, bu hududda Rishton, G‘urumsaroy, Chust va Namangan kabi yirik kulolchilik markazlari shakllangan. Har bir markazning o‘ziga xos badiiy uslubi, bezak tizimi va texnologik yondashuvi mavjud bo‘lib, ular umumiy hududiy maktabning turfa yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Shulardan biri — Namangan kulolchilik markazi XIX asr oxiridan XX asrning 90-yillarigacha faoliyat ko‘rsatib kelgan. Ushbu markazning o‘ziga xosligi shundaki, unda an‘anaviy ishqorli sir bilan bir qatorda qo‘rg‘oshinli sir texnologiyasi ham keng qo‘llanilgan. Shuningdek, Namangan kulollari o‘z asarlarida chetan guli, mexrobi, pardagi naqsh, olma gul, tumora, behi gul, dondona, davra islimiy, zanjira, yulduz va paxtagul kabi naqshlarni ishlatish bilan ajralib turadi. Ularning badiiy merosida o‘simliksimon va hayvonot tasvirlari ham muhim o‘rin egallaydi.

Mazkur maqolada XIX–XX asrlarda Namanganda faoliyat yuritgan mashhur kulollar, ularning ijodiy an‘analari, texnologik usullari hamda Namangan maktabining umumiy rivojlanish jarayoni ilmiy tahlil qilinadi. Shu bilan birga, XX asr oxirida yuz bergan

25-Sentabr, 2025-yil

sanoatlashuv va iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida ushbu markazning asta-sekinlik bilan inqirozga yuz tutishi masalasi ham yoritiladi.

Asosiy qism

Namangan kulolchilik maktabi XIX asr oxiri va XX asr davomida ko‘plab mashhur ustalarni yetishtirgan. Ularning orasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- Boqijon Chinnisoz (1837–1912)
- Abdulvohid Kosagar (1829–1914)
- Madkarim Kosagar (1852–1930)
- Abdug‘affor Chinnisoz
- Abdufayz Ko‘zagar
- Nurmuhammad Ko‘zagar
- Usta Xudoybergan
- Usta Ibrohim
- Toshpo‘lat Ibrohimov (1898)
- Toshxo‘ja Tillaxo‘jayev (1886)
- Sotiboldi Kosagar (1860–1940)
- Ko‘kvoy Ahmadjonov (1890)
- Boyi Namanganiy (1855–1930)
- Dali Kulol
- Rasulov Qayumboy (1863–1945)
- Tojiboy (1870)
- Sharofiddin Sharipov (1895)
- Qodirboyev Sharif
- Muhammadjon Kulol (1875–1940)
- Rahimov Usmonboy (1878)
- Orifboyev Abdurahmon (1886–1917)
- Abdurazzoqov Xolmirza (1892)
- Holiqov Mamadali (1900)
- Oxunjonov Xolmirza (1909)
- Azizov Yusufjon (1910)
- Murodov Abdulla (1917)
- Nizomov Xolmirza (1927)
- Yusupov Hamroxo‘ja (1973)
- Toshpo‘lat va Mamasodiq Ibrohimovlar (1890, 1896)
- Toshxo‘ja Tillaxo‘jayev (1886)

Shuningdek, 1980–1990-yillarda Ahmadjon Odilov Namanganda ikki qavatli kulolchilik sexini tashkil etib, bir necha ustalarni faoliyatga jalb qilgan.

Badiiy va texnologik xususiyatlar

Namangan kulollarining ijodida bir nechta badiiy-texnologik jihatlar alohida ajralib turadi:

25-Sentabr, 2025-yil

1. Sir texnologiyalari – Rishton va G‘urumsaroy ustalaridan farqli ravishda, Namangan ustalari ishqorli sir bilan bir qatorda qo‘rg‘oshinli sirni ham keng qo‘llashgan. Bu ularning buyumlariga turfa rang-baranglik va jilolilik baxsh etgan.

2. Naqsh va bezaklar – Namangan maktabiga xos naqshlarda chetan guli, mexrobi, pardagi naqsh, islimiy aylanma, olma gul, tumora, behi gul, dondona, davra islimiy, zanjira, chinni gul, yulduz va paxtagul kabi ornamentlar asosiy o‘rin egallaydi. Bundan tashqari, hayvonot va o‘simliksimon tasvirlardan foydalanish ham keng tarqalgan.

3. Ixtisoslashuv – Namangan ustalari o‘z faoliyatida bir necha yo‘nalishlarga bo‘lingan: chinnipaz, koshinpaz, ko‘zagar va kosagar. Bu holat ustalarning mahoratini yanada chuqurlashtirgan. Keyinchalik artel tizimida shakl beruvchi va naqqosh ustalarning alohida faoliyat yuritishi kuzatiladi.

4. Mahsulot turlari – Asosan mayda hajmdagi idishlar, tovoq, ko‘zacha va humcha kabi buyumlar yasash an‘anaviy bo‘lgan. Ularning shaklida nafislik va amaliy qulaylik uyg‘unlashgan.

XX asr oxiridagi o‘zgarishlar

XX asrning ikkinchi yarmi va oxirida Namangan kulolchilik markazida an‘anaviy uslublar asta-sekin o‘zgarib bordi. Ko‘plab ustalar vafotidan so‘ng, yosh avlod asosan sanoat uslubidagi ishlab chiqarishga, ya‘ni shtamplash va qolip asosida ko‘paytirishga yo‘naltirildi. Bu davrda souvenir mahsulotlari, mayda va o‘rta hajmdagi idishlar ko‘p ishlab chiqarilgan.

1980-yillarda Ahmadjon Odilov tomonidan tashkil etilgan kulolchilik sexi qisqa muddat faoliyat yuritib, Namangan, Andijon va Rishtondan ustalarni jalb qilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar natijasida faoliyat uzoqqa cho‘zilmadi. XX asr oxiriga kelib, Namangan kulolchilik maktabi deyarli to‘xtab qoldi.

Xulosa. Namangan kulolchilik maktabi XIX–XX asrlarda Farg‘ona vodiysining yirik badiiy markazlaridan biri sifatida shakllangan. Bu davrda Namanganlik kulollar – Boqijon Chinnisoz, Abdulvohid Kosagar, Madkarim Kosagar, Toshpo‘lat va Mamasodiq Ibrohimovlar, Toshxo‘ja Tillaxo‘jayev, Rasulov Qayumboy, Muhammadjon Kulol va boshqa ko‘plab ustalar o‘z maktabining yuksalishiga katta hissa qo‘shdilar.

Namangan ustalari Rishton va G‘urumsaroy maktablari bilan uzviy aloqada bo‘lib, o‘z uslublarini ishlab chiqdilar. Ularning sir texnologiyalarida qo‘rg‘oshinli sirning keng qo‘llanishi, naqsh bezaklarining rang-barangligi va badiiy mazmuni Namangan maktabining o‘ziga xos jihatlaridan bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, ustalarning ixtisoslashuvi – chinnipaz, koshinpaz, ko‘zagar va kosagar yo‘nalishlari – kulolchilik jarayonining yuqori darajada tashkil etilganini ko‘rsatadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kulolchilikda sanoatlashuv, qolip asosida ishlab chiqarish jarayonlari kuchayib, an‘anaviy uslublarning susayishiga sabab bo‘ldi. Ahmadjon Odilov tomonidan tashkil etilgan kulolchilik sexi qisqa vaqt ichida bu san‘atni jonlantirishga uringan bo‘lsa-da, barqaror rivojlanish ta‘minlanmadi. Natijada XX asr oxiriga kelib Namangan kulolchilik maktabi faoliyati deyarli to‘xtab qoldi.

25-Sentabr, 2025-yil

Bugungi kunda Namangan kulolchilik maktabining boy merosini ilmiy tadqiq etish, ustalar faoliyatini hujjatlashtirish va an’anaviy naqsh, shakl hamda sir texnologiyalarini tiklash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat san’at tarixini boyitadi, balki milliy hunarmandchilikni qayta tiklashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рахимов М.К. Художественная керамика Узбекистана. Ташкент. 1961.
2. Ҳакимов А.А. Ўзбекистон ҳунармандчилиги. - Тошкент: Очун, 2023.
3. Алиева С.Ш. Художественная поливная керамика Узбекистана IX- начала XXI в. – Тошкент, Санъат. 2009. 128-б.
4. Алимов С. Кулолчилик санъатида бадиий услублар. – Наманган, 1998.
5. Турсунов Ш. Фарғона ҳунармандлари: тарих ва мерос. – Фарғона: Илмий мерос, 2005.
6. Худойбердиев Ҳ. “Наманган кулолчилик мактабида XIX–XX асрлар усталари”. // Ўзбек санъат тарихи журнали. – 2018. – №2. – Б. 45–56.
7. Маджидов Н. Фарғона водийси амалий санъатида анъаналар ва инновациялар. – Тошкент, 2020.
8. Уста кулоллар билан суҳбатлар ва маҳаллий экспедиция материаллари (Наманган вилояти, 2023–2025).